
"Tashabbusli byudjet": "Yakkavut" mahalla fuqarolar yig'inidagi 28-umumta'lim maktabida 180 o'rini yangi bino qurilib, zamonaviy qiyofa kasb etdi.

Tumandagi 28-umumta'lim maktabidagi mavjud muammolar "Tashabbusli byudjet" loyihasi doirasida ijobjiy hal etildi. 1 milliard 200 million so'm mablag' evaziga 180 o'rini yangi o'quv binosi qurib bitkazildi. Bu esa maktabda 1-4 sinflarda tahsil oladigan o'quvchi yoshlar uchun o'ziga hos tuhfa bo'ldi. O'quv binosining ochilish marosimida so'z olgan tuman IIB boshlig'i podpolkovnik Avazbek Kattabekov zamonaviy binoni foydalanishga topshirilishi bilan barchani muborak etib, yoshlarga ilm-ma'rifat saboqlarini chuqur egallab, ulkan marralarni zabit etishlarida omad tiladi.

Shundan so'ng, mahalla faollari yangi o'quv binoda ta'lim olayotgan yoshlarga yaratilgan sharoitlar bilan tanishdilar.

2023-12-13 17:30:52